



DAVLAT XARAJATLARINING IQTISODIY O'SISH VA FISKAL BARQARORLIKKA TA'SIRI

THE IMPACT OF GOVERNMENT EXPENDITURE ON ECONOMIC GROWTH AND FISCAL SUSTAINABILITY

¹Jumaniyazov Inomjon
Turayevich, ²Zayniyev
Ozodbek Oybek o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,
G-mail: inomjonscience@gmail.com, ²Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti talabasi, G-mail: ozodbekzayniyev2216@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada davlat xarajatlari va moliyaviy muvozanat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kompleks tarzda tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida davlat xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi xalqaro tajribalar va turli mamlakatlar misolida solishtirma tahlil asosida o'rganilgan. Xususan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat xarajatlari dinamikasi hamda ularning fiskal barqarorlikka ta'siri baholangan. Shuningdek, empirik va nazariy xulosalar asosida davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish, budjet muvozanatini mustahkamlash va fiskal barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article provides a comprehensive analysis of the interrelationship between government expenditure and fiscal balance. The study examines the share of government expenditure in gross domestic product (GDP) through a comparative analysis based on international experience and cross-country evidence. In particular, the dynamics of government expenditure in both developed and developing countries and their impact on fiscal sustainability are assessed. Based on the empirical findings and theoretical insights, the article proposes practical and policy-oriented recommendations aimed at improving the efficiency of government expenditure, strengthening budgetary balance, and ensuring long-term fiscal sustainability.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ davlat xarajatlari, moliyaviy muvozanat, YaIMdagi ulush, iqtisodiy samaradorlik, rivojlanayotgan mamlakatlar, fiskal siyosat, optimallashtirish, konsolidatsiyalashgan budjet.

❖ government expenditure, financial balance, share in GDP, economic efficiency, developing countries, fiscal policy, optimization, consolidated budget.

Kirish.

O'zbekistonda konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlarining YaIMdagi ulushi 2023-yilda 31,6 foizni, 2024-yilda esa 29,8 foizni tashkil qilgani davlatning iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlashdagi roli hanuz katta ekanidan dalolat beradi. Bunday holat bozor mexanizmlarining to'liq ishlashiga

ma'lum darajada ta'sir qilishi, resurslarning samarasiz taqsimlanishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga olib kelishi mumkinligi ko'pgina xalqaro tajribalarda qayd etilgan [1].

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, iqtisodiy rivojlanishning dastlabki bosqichida Singapur (1960–1990 yillar) davlat

xarajatlarini YaIMning atigi 8–13 foizi miqyosida ushlab turgan, Yaponiya esa 1960–1990 yillarda bu ko'rsatkichni 11–14 foiz atrofida saqlagan. Ushbu mamlakatlar markazlashuv darajasining pastligi, bozor kuchlariga keng yo'l ochilgani va institutsional islohotlarning samaradorligi tufayli tez iqtisodiy o'sishga erishgan. Mazkur tajribalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyoti shakllanish bosqichida bo'lgan davlatlar uchun davlat xarajatlarining ortiqcha yuqori darajaga ega bo'lishi iqtisodiy samaradorlikni cheklashi mumkin.

O'zbekistonda esa davlat xarajatlarining tarkibi ham ma'lum muammolarga ishora qiladi: konsolidatsiyalashgan budjetda ijtimoiy xarajatlar 49 foizni tashkil etayotgan bo'lsa, iqtisodiy xarajatlarga atigi 12,35 foiz ajratilmoqda. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy modernizatsiya, infratuzilma, innovatsiya va ishlab chiqarish salohiyatining rivojlanishini sekinlashtiradi. Shunday sharoitda davlatning iqtisodiyotdagi haddan tashqari yuqori ishtiroki moliyaviy muvozanatning buzilishi, bozor institutlarining yetarlicha shakllanmasligi va rivojlanish jarayonining sekinlashuviga olib kelmoqda. Shu bois iqtisodiy tizimning barqarorlashuvi, moliyaviy muvozanatning ta'minlanishi va iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishi uchun davlat rolini optimallashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Davlat xarajatlarining iqtisodiy o'sish va fiskal barqarorlikka ta'siri iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida eng ko'p tadqiq qilingan mavzulardan biridir. Klassik, keynschi va zamonaviy empirik tadqiqotlar ushbu munosabat haqida turlicha xulosalar beradi. Shu bois, O'zbekiston misolida davlat xarajatlarining yuqori darajada o'sishi qanday oqibatlarga olib kelishini baholash uchun mavjud ilmiy yondashuvlarni tizimli ko'rib chiqish zarur.

Keynsning [2] "The General Theory" asarida davlat xarajatlari iqtisodiy o'sishning muhim stimulyatori sifatida talqin qilinadi. Unga ko'ra, davlat xarajatlari multiplikator mexanizmi orqali jami talabni kengaytiradi, bandlikni oshiradi va iqtisodiy faollikni tiklaydi. Ammo Keyns multiplikator effekti resurslar samarali taqsimlangan, bozor infratuzilmasi yaxshi ishlaydigan sharoitlarda kuchli bo'lishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvga asoslanib, davlat xarajatlarining o'sishi o'sishni rag'batlantirishi mumkin, biroq ularning tarkibi, maqsadga muvofiqligi va samaradorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Joseph E. Stiglitz, Jay K. Rosengardlarning [3] "Economics of the Public Sector" asarida davlat xarajatlari bozor muvaffaqiyatsizliklarini bartaraf etish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash hamda asosiy jamoat xizmatlarini ko'rsatishning zarur vositasi sifatida yoritiladi. Mualliflar davlat xarajatlarining sifatini baholashda siyosiy qarorlar, manfaatdor guruhlar bosimi, institutsional cheklovlar va xarajatlarning qaytarimi kabi omillar muhimligini ko'rsatadi. Bu yondashuv davlat xarajatlarining yuqoriligi o'z-o'zidan ijobiy natija bermasligini, ularning samaradorligi va maqsadsiz sarflanishi iqtisodiy natijalarni keskin pasaytirishini anglatadi.

O'zbekiston bo'yicha xalqaro moliya institutlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham davlat xarajatlarining hajmi va sifati masalasiga alohida urg'u beradi. Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha Public Expenditure Review (PER) [4] hisobotida sog'liqni saqlash, irrigatsiya va ijtimoiy himoya sohalarida qo'shimcha investitsiyalar zarurligi qayd etiladi. Biroq tezkor va katta hajmdagi xarajatlarning kengayishi budjet defitsitining oshishiga, fiskal bosimning kuchayishiga va davlat qarzining ortishiga olib kelayotganligi ta'kidlanadi. Strukturaviy islohotlarning sekinligi, xususan davlat korxonalarining subsidiyalari va soliq imtiyozlari fiskal

barqarorlikni tiklashda asosiy to'siqlar sifatida ko'rsatiladi.

IMF [5]ning O'zbekiston bo'yicha Selected Issues hisobotida esa fiskal konsolidatsiya va davlat xarajatlarini optimallashtirish iqtisodiy barqarorlikning asosiy sharti sifatida ta'kidlanadi. Hisobot energetika subsidiyalarini qisqartirish, ijtimoiy yordamni aniq nishonga yo'naltirish, ish haqi fondini optimallashtirish hamda davlat investitsiyalarini ustuvorliklar asosida tanlash zarurligini ko'rsatadi. IMFga ko'ra, yuqori davlat xarajatlari qisqa muddatda iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda ular defitsit va qarzni ortishiga, shuningdek, resurslarning samarali ishlatilmasligiga olib keladi.

Davlat xarajatlarining yuqori darajasi iqtisodiy o'sish sur'atlariga qanday ta'sir qilishini empirik jihatdan tahlil qilgan Robert J. Barro [6] (1991) Economic Growth in a Cross Section of Countries tadqiqoti ham muhim ahamiyatga ega. Barroning trans-mamlakatlar kesimidagi tahlillari hukumat iste'mol xarajatlari iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi mumkinligini ko'rsatadi, chunki ular soliqlarni oshiradi, bozor distorsiyalarini kuchaytiradi va xususiy sektor samaradorligini pasaytiradi. Biroq Barro davlat investitsiyalarining iqtisodiy o'sishga aniq ijobiy ta'siri bo'lmasligini, natija ko'proq inson kapitali, siyosiy barqarorlik va institutsional sifatlariga bog'liq ekanini ta'kidlaydi.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasining tadqiqotida [7] yuqori davlat xarajatlari va investitsiyalar iqtisodiy o'sish va barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Pandemiya davrida hukumatlar sog'liqni saqlash va zaif aholiga yordam ko'rsatishga e'tibor qaratgan bo'lsa-da, uzoq muddatli tiklanish va o'sish uchun davlat investitsiyalari muhim vosita sifatida namoyon bo'ldi. Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sifatli davlat investitsiyalari xususiy investitsiyalarni rag'batlantirib, ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy faollikni oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, u ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, hududlar o'rtasidagi konvergentsiya va iqlim o'zgarishiga moslashuvchanlikni oshirishda muhimdir.

IMF tadqiqotiga [8] ko'ra, davlat investitsiyalari va ularning moliyalashtirish manbalari kam daromadli mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va qarz barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Imtiyozli tashqi qarz orqali moliyalashtirilgan investitsiyalar qisqa va o'rta muddatda moslashuvni talab qiladi, tashqi tijorat qarzi esa bu jarayonni yengillashtiradi. Mahalliy qarzlarning qo'shimcha resurs bermasligi sababli kamroq samarali hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarning tarkibi, jumladan inson kapitali va infratuzilmaga ajratilgan mablag'lar, uzoq muddatli iqtisodiy natijalarni belgilaydi.

Mavjud ilmiy va amaliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat xarajatlarining yuqori bo'lishi o'z-o'zidan nafaqat ijobiy, balki salbiy oqibatlar ham keltirishi mumkin. O'sishni rag'batlantiruvchi xarajatlar samarali boshqarilgan taqdirda ijobiy natija berishi mumkin bo'lsa-da, ulkan va tez kengayayotgan xarajatlar fiskal beqarorlik, defitsitning chuqurlashuvi va resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi xavfini kuchaytiradi. Bu esa O'zbekiston sharoitida davlat xarajatlarining sifatini oshirish, ustuvorliklarni qayta ko'rib chiqish va fiskal intizomni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda davlat xarajatlarining yuqori darajasi va moliyaviy muvozanat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy tahlil, solishtirma-statistik tahlil, institutsional yondashuv hamda empirik kuzatuvlarga asoslanadi.

Birinchi bosqichda davlat xarajatlari, fiskal muvozanat va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha nazariy

adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Ushbu bosqichda klassik va keynschi iqtisodiy nazariya, shuningdek, zamonaviy empirik tadqiqotlar (Keyns, Stiglitz, Barro va xalqaro moliya institutlari ishlari) o'rganilib, davlat xarajatlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri bo'yicha asosiy konseptual yondashuvlar tizimlashtirildi. Bu yondashuv tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ushbu bo'limda O'zbekistonda so'nggi yillarda shakllangan davlat xarajatlari dinamikasi va ularning tarkibi,

konsolidatsiyalashgan budget xarajatlarining YaIMdagi ulushi hamda mazkur ko'rsatkichlarning iqtisodiy o'sish va moliyaviy muvozanatga ta'siri tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor davlat xarajatlarining yuqori darajada saqlanib qolishi va uning fiskal barqarorlik hamda iqtisodiy samaradorlik bilan bog'liq jarayonlarga ta'sirini aniqlashga qaratiladi. Tahlilning asosiy maqsadi – yuqori davlat xarajatlarining rivojlanayotgan mamlakat sharoitida moliyaviy muvozanat va iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatayotganini ochib berishdan iborat.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida konsolidatsiyalashgan budget xarajatlari [9-12]

Xarajatlar turi	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil (kutilma)
1. Davlat budjeti xarajatlari (trln. so'm)	236,7	281,1	310,9	388,9
1.1. Ijtimoiy xarajatlar	117,7	137,2	152,3	206,0
1.2. Iqtisodiy xarajatlar	34,1	42,9	38,4	58,0
2. Davlat maqsadli jamg'armalari (trln. so'm)	70,8	53,8	50,2	64,3
3. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (trln. so'm)	11,1	13,4	20,4	21,5
4. Budget tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari	14,6	25,6	38,9	40,3
5. Tashqi qarz hisobidan dasturlar	10,7	7,8	15,1	15,9
Konsolidatsiyalashgan budget xarajatlari	343,9	381,7	427,6	528,6
YaIMga nisbati %	38,7%	35,8%	29,8%	30,7%
Konsolidatsiyalashgan budget balansi (%YaIM)	-	-4,9%	-3,3%	-3%
Davlat qarzi (%YaIM)	32,4%	34,4%	35%	-

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda davlat xarajatlarining yuqori darajasi qisqa muddatda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muayyan ijobiy rol o'ynagan. Xususan, konsolidatsiyalashgan budget xarajatlarining 2022–2024-yillarda 343,9 trln. so'mdan 427,6 trln. so'mga oshishi ijtimoiy majburiyatlarni moliyalashtirish, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash imkonini bergan. Ushbu tendensiya 2025-yilda ham davom etib, konsolidatsiyalashgan budget xarajatlari 528,6 trln. so'mga yetishi kutilmoqda, bu esa davlatning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlardagi faol ishtiroki saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Ijtimoiy xarajatlarning 2022–2025-yillarda 75 foizga

oshgani aholi daromadlarini barqarorlashtirish va iste'mol talabining keskin pasayib ketishini oldini olishga xizmat qilgan bo'lsa, 2025-yilda ham ularning sezilarli darajada oshishi ushbu yo'nalish ustuvorligicha qolayotganini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida davlat xarajatlarining oshishi qisqa muddatda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi va makroiqtisodiy barqarorlashtiruvchi instrument sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq, davlat xarajatlarining bunday yuqori darajada va uzluksiz saqlanib qolishi uzoq muddatda moliyaviy muvozanat va iqtisodiy samaradorlikka jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, konsolidatsiyalashgan budget defitsiti

2023-yilda YaIMga nisbatan 4,9 foizni, 2024-yilda esa 3,3 foizni tashkil etgan. 2025-yil uchun defitsitning YaIMga nisbatan 3 foiz atrofida shakllanishi kutilayotgani fiskal bosimning qisqa muddatda biroz yumshashini ko'rsatsa-da, defitsit muammosi saqlanib qolayotganini anglatadi. Bu holat davlat xarajatlarining barqaror daromad manbalari bilan to'liq qoplanmayotganini va ularning muhim qismi qarz va defitsit hisobidan moliyalashtirilayotganini ko'rsatadi. Natijada davlat qarzining YaIMga nisbati 2022-yildagi 32,4 foizdan 2024-yilda 35 foizgacha oshgan bo'lib, 2025-yilda ham qarz yukining nisbatan yuqori darajada saqlanib qolish xavfi mavjud. Ushbu tendensiya davlat xarajatlarining yuqori darajasi fiskal barqarorlikka bosim kuchaytirayotganini va kelgusida budjet resurslarining tobora katta qismi qarzga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilishi ehtimolini oshirayotganini ko'rsatadi.

Yuqori davlat xarajatlarining yana bir muhim salbiy jihati ularning tarkibiy samaradorligi bilan bog'liq. Davlat xarajatlarining yuqori bo'lishi ularning avtomatik tarzda iqtisodiy o'sishni tezlashtirishini anglatmaydi. Aksincha, xarajatlarning muhim qismi maqsadsiz, past iqtisodiy qaytimga ega yoki takrorlanuvchi yo'nalishlarga yo'naltirilgan sharoitda ular iqtisodiy o'sish sifatini pasaytiradi. 2025-yilda ham davlat xarajatlari hajmining sezilarli darajada oshishi ularning samaradorligini baholash va ustuvorliklarni qayta ko'rib chiqish zaruratini yanada kuchaytiradi. Bunday holatda cheklangan moliyaviy resurslar samarali investitsiyalarga emas, balki qisqa muddatli yoki institutsional jihatdan zaif loyihalarga sarflanish xavfi ortadi. Shu sababli davlat moliyasini barqarorlashtirish uchun asosiy e'tibor davlat xarajatlarini yanada oshirishga emas, balki ularni bosqichma-bosqich qisqartirish, natijaviylikka yo'naltirilgan davlat dasturlariga aylantirish va har bir sarflangan mablag'ning iqtisodiy qaytimini qat'iy baholashga qaratilishi lozim.

Davlat xarajatlarining YaIMdagi yuqori ulushi davlat sektorining iqtisodiyotdagi rolini haddan tashqari kengaytiradi va bu holat xususiy sektor faolligini cheklaydi. Amaldagi ma'lumotlar davlatning bozordagi salmoqli ulushga ega ekanligini yaqqol tasdiqlaydi. Jumladan, konsolidatsiyalashgan davlat budjeti xarajatlarining YaIMga nisbati 2022-yilda 38,7 foizni, 2023-yilda 35,8 foizni, 2024-yilda 29,8 foizni hamda 2025-yilda 30,7 foizni tashkil etgani davlatning iqtisodiyotdagi faol ishtiroki yuqori darajada saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Xususan, 2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, mamlakatda faoliyat yuritayotgan 691 ta aksiyadorlik jamiyatining 252 tasida, ya'ni 36,5 foizida davlat ulushi mavjud. Ushbu jamiyatlarning umumiy aksiya hajmi 256,9 trillion so'mni tashkil etib, shundan 183,5 trillion so'mi yoki 71,4 foizi davlat ulushiga to'g'ri keladi. Davlat ulushining tuzilmasiga e'tibor qaratilsa, uning 66,7 foizi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 25,7 foizi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, 7,1 foizi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda 0,5 foizi boshqa vazirlik va idoralar hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu raqamlar davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtiroki yuqori ekanligini va bozor mexanizmlarining to'liq ishlashiga to'sqinlik qilayotganini ko'rsatadi. Taqqoslash uchun, muvaffaqiyatli industrial rivojlanish bosqichini bosib o'tgan davlatlar tajribasiga murojaat qilinsa, Singapurda 1960–1990-yillarda davlat xarajatlarining YaIMdagi ulushi atigi 8–13 foizni, Yaponiyada esa 11–14 foizni tashkil etgan. Bu esa barqaror va sifatli iqtisodiy o'sishga erishishda davlatning iqtisodiyotdagi ulushi nisbatan cheklangan bo'lishi muhimligini aytadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri har doim ham davlat xarajatlarining (G) YaIMdagi ulushi yuqori bo'lishi emas. Makroiqtisodiy identitetga ko'ra,

$$YaIM = C + I + G + (X - M) [9]$$

bu yerda:

C (Consumption) – aholi va uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari;

I (Investment) – yalpi xususiy investitsiyalar (asosiy kapitalga investitsiyalar, zaxiralarning o'zgarishi);

G (Government Expenditure) – davlatning yakuniy iste'mol va investitsiya xarajatlari;

X (Exports) – tovar va xizmatlar eksporti;

M (Imports) – tovar va xizmatlar importi.

YaIM xarajatlar usuli orqali aniqlanib, u uy xo'jaliklari iste'moli, xususiy investitsiyalar, davlat xarajatlari hamda sof eksport yig'indisidan iborat. Ushbu yondashuv davlat xarajatlarining iqtisodiy o'sish va moliyaviy muvozanatga ta'sirini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki davlat xarajatlari fiskal siyosatning asosiy instrumenti hisoblanadi.

Davlat xarajatlari ulushi past bo'lgan sharoitda ham o'sish investitsiyalar (I) va sof eksport (Xn) hisobiga ta'minlanishi mumkin. Singapur misolida YaIM o'sishining asosiy manbai aynan shu komponentlar bo'lgan: 1960–1990-yillarda C 89 foizdan 45 foizga keskin kamaygan bo'lsa-da, I 11 foizdan 36 foizga oshgan, tashqi sektor esa $Xn = X - M$ ko'rinishida 13.7 foizdan +10.1 foizga yaxshilangan. Bu shuni anglatadiki, o'sish "davlat ko'p sarflagani" hisobiga emas, balki kapital jamg'arilishi va eksportga tayangan model orqali yuzaga kelgan; G esa nisbatan barqaror bo'lib, 7.5 foizdan 9.5 foizga oshgan xolos. IMF tahlillarida qayd etilganidek, bunday natijaga past inflyatsiya va sog'lom fiskal boshqaruv bilan mustahkamlangan makrobarqarorlik, erkin savdo siyosati hamda xorijiy investitsiyalar uchun ochiq muhit orqali erishilgan; buning natijasida kapital oqimi va eksportga yo'naltirilgan o'sish tezlashgan.

Bu model amaliyotda Singapurda tarkibiy transformatsiya bilan ham tasdiqlanadi: 1960–1992-yillarda ishlab chiqarish ulushi 16,6 foizdan 27,7 foizga, moliyaviy va biznes

xizmatlari 14 foizdan 25,8 foizga oshgan, YaIM hajmi 5059 mln. AQSh dollaridan 64416 mln. AQSh dollarigacha (qariyb 13 barobar) ko'paygan. Xorijiy investitsiyalar roli ham hal qiluvchi bo'lgan: 1962–1988-yillarda xorijiy korxonalar ulushi sanoat qo'shilgan qiymatida 24,6 foizdan 61,9 foizga, eksportda 26,3 foizdan 72,6 foizga yetgan.

O'zbekiston ma'lumotlari esa boshqa tarkibiy holatni ko'rsatadi: 2020–2024-yillarda C 64 foizdan 68 foizga oshgan, I 38 foizdan 33 foizga pasaygan, tashqi sektor salbiy holatda qolib, Xn –12,2 foizdan – 15,2 foizga yomonlashgan. G esa biroz kamayib, 14,6 foizdan 13,9 foizga tushgan. Demak, O'zbekistonda moliyaviy muvozanatni baholashda muammo faqat G ulushining o'zi emas: o'sish drayverlari sifatida I va Xn ning kuchayishi yetarli bo'lmagan sharoitda, yuqori xarajatlar va iste'molga tayanish tashqi nomuvozanat (import bosimi)ni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, Singapur tajribasi O'zbekistonda yuqori davlat xarajatlari sharoitida asosiy mezon sifatida xarajat hajmidan ko'ra xarajatlar samaradorligi, institutsional sifat, investitsiya va eksport salohiyatini birinchi o'ringa qo'yish zarurligini ko'rsatadi.

Davlat xarajatlarining YaIMdagi ulushi yuqori bo'lishi, agar xarajatlar tarkibi iste'mol va transferlarga og'ib ketsa hamda institutlar zaif bo'lsa, xususiy investitsiyalarni siqib chiqarishi, import talabini kuchaytirishi va natijada budjet hamda tashqi muvozanatga bosimni oshirishi mumkin. Singapurda esa G nisbatan past bo'lgan, o'sish I va Xn hisobiga ta'minlangan; shu bois fiskal yuklama o'sishning "drayveri" emas, balki barqarorlikni saqlovchi omil sifatida ishlagan. O'zbekiston sharoitida esa C yuqoriligi, I pasayishi va Xn manfiylashishi yuqori xarajatlar fonida moliyaviy muvozanat risklarini kuchaytirishi ehtimolini bildiradi.

Davlat xarajatlarining samaradorligini pasaytirayotgan muhim omillardan biri subsidiya va grantlar orqali amalga

oshirilayotgan keng ko'lamli qo'llab-quvvatlash siyosatidir. Ma'lumotlarga ko'ra, subsidiyalar hajmi 2022-yilda 12,3 trillion so'mdan, 2023-yilda 26,0 trillion so'mga keskin oshgan va 2024-yilda 25,6 trillion so'm darajasida saqlanib qolgan. Ushbu ko'rsatkichlarning yuqori darajada saqlanishi 2025-yilda ham davlat xarajatlarining muhim qismi qaytarilmaydigan instrumentlar orqali taqsimlanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, davlat maqsadli jamg'armalariga ajratilgan grantlar hajmi 2022-yildagi 26,9 trillion so'mdan 2023-yilda, 30,7 trillion so'mga, 2024-yilda esa 34,8 trillion so'mga yetgan. Natijada, xo'jalik yurituvchi subyektlarda davlat yordamiga qaramlik kuchayadi, samaradorlik va innovatsiyaga bo'lgan rag'bat susayadi hamda raqobat muhiti izdan chiqadi.

Davlat xarajatlarining yuqori darajasi shaffoflik va institutsional nazorat yetarli bo'lmagan sharoitda yanada salbiy oqibatlarga olib keladi. Xususan, O'zbekiston korrupsiyani qabul qilish indeksi bo'yicha 180 ta davlat orasida 121-o'rinni egallashi davlat mablag'lari sarfi jarayonlarida samaradorlik pastligi va resurslar yo'qotilishi xavfi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bunday institutsional muhitda 2025-yilda davlat xarajatlarining yanada oshishi iqtisodiy o'sishni tezlashtirishdan ko'ra fiskal va ijtimoiy risklarni kuchaytirish ehtimolini oshiradi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yuqori davlat xarajatlari qisqa muddatda ijtimoiy va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlagan bo'lsa-da, ularning 2025-yilda ham yuqori darajada saqlanib qolishi uzoq muddatda moliyaviy muvozanat, raqobat muhiti va iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. Shu sababli davlat xarajatlarini miqdor jihatidan oshirishdan ko'ra, ularni qisqartirish, natijaviylikka yo'naltirilgan davlat dasturlariga o'tkazish, subsidiyalar va grantlarni qat'iy vaqtinchalik instrument sifatida qo'llash hamda davlatning iqtisodiyotdagi bevosita

ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirish barqaror iqtisodiy o'sish va fiskal barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tahlil natijalari O'zbekistonda davlat xarajatlarining yuqori darajasi qisqa muddatda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi. Xususan, ijtimoiy xarajatlarning sezilarli darajada oshishi aholi daromadlarini qo'llab-quvvatlash, iste'mol talabining keskin pasayib ketishini oldini olish va makroiqtisodiy barqarorlikni saqlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, infratuzilma va davlat dasturlari orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantirish imkoniyatlari kengaygan.

Biroq tahlil shuni ko'rsatadiki, davlat xarajatlarining YaIMga nisbatan yuqori ulushi va ularning uzluksiz o'sib borishi uzoq muddatda moliyaviy muvozanat va iqtisodiy samaradorlikka jiddiy bosim o'tkazmoqda. Konsolidatsiyalashgan budjet defitsitining saqlanib qolishi va davlat qarzining YaIMga nisbatan oshib borishi davlat moliyasining barqarorligi uchun tizimli xatarlar mavjudligini anglatadi. Bu holat kelgusida budjet resurslarining tobora katta qismi qarzga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilishiga va rivojlanish xarajatlari imkoniyatlarining qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Tahlil natijalari O'zbekistonda o'sish tarkibi iste'molga tayanib borayotgani, investitsiyalar ulushi pasayayotgani va sof eksport manfiylashayotganini ko'rsatadi. Shu bois davlat xarajatlari hajmidan ko'ra ularning tarkibini optimallashtirish, xususiy investitsiya va eksportni kuchaytiradigan sharoit (barqaror fiskal siyosat, samarali institutlar, infratuzilma) yaratish moliyaviy muvozanatni mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shuningdek, davlat xarajatlarining yuqori darajasi ularning tarkibiy samaradorligi bilan bog'liq muammolarni yanada kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Subsidiyalar va grantlar orqali amalga oshirilayotgan keng

ko'lamli qo'llab-quvvatlash siyosati xo'jalik yurituvchi subyektlarda davlat yordamiga qaramlikni kuchaytirib, raqobat muhitini susaytirmoqda hamda innovatsion faollikni cheklamoqda. Davlatning aksiyadorlik jamiyatlaridagi yuqori ulushi esa xususiy sektor rivojlanishi va bozor mexanizmlarining to'liq ishlashiga to'sqinlik qilayotgan muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda 2025-yilda davlat xarajatlarini yanada oshirish iqtisodiy o'sishni tezlashtirishdan ko'ra fiskal va institutsional risklarni kuchaytirishi

ehtimoli yuqori. Shu sababli davlat moliya siyosatini takomillashtirishda asosiy ustuvorliklar sifatida davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich qisqartirish, ularni natijaviylik va iqtisodiy qaytim asosida qayta yo'naltirish, subsidiyalar va grantlarni qat'iy vaqtinchalik va maqsadli instrumentlar sifatida qo'llash hamda davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokini izchil kamaytirish lozim. Mazkur yondashuv fiskal barqarorlikni mustahkamlash, raqobat muhitini yaxshilash va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. — Toshkent, 2025. — <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
2. John Maynard Keynes "The General Theory of Employment, Interest and Money"—Atlantic Publishers & Dist, 2016.
3. Joseph E. Stiglitz, Jay K. Rosengard "Economics of the Public Sector"—W. W. NORTON & COMPANY, INC, 2015, 269-p.
4. World Bank, (2022). UZBEKISTAN PUBLIC EXPENDITURE REVIEW. World Bank. <https://www.worldbank.org>
5. International Monetary Fund, (2024, July 11). Republic of Uzbekistan: Selected issues (Country Report No. 2024/211). <https://www.imf.org>
6. Barro, R. J. (1991). Economic growth in a cross section of countries. *The Quarterly Journal of Economics*, 106(2), 437-p.
7. IMF. (2020). Fiscal Monitor, October 2020: Chapter 2. Public Investment for the Recovery. International Monetary Fund. Washington, DC. <https://www.imf.org/en/Publications/FM>
8. IMF. (2021). Public investment, financing, and debt sustainability in low-income countries: A dynamic macroeconomic model. International Monetary Fund, Washington, DC.
9. Jahon banki. World Development Indicators Database. "Government expenditure (% of GDP): Singapore, Japan, 1960–1990". <https://data.worldbank.org/>